

XALQARO HUQUQDA DIPLOMATIYANING AHAMIYATI

Tolegenova Shinargul Sansizbay qizi

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti talabasi
tolegenovashinargul@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalqaro huquq tizimida diplomatiyaning o'рни va ahamiyatini har tamonlama tahlil qilishga bag'ishlangan. Diplomatiya- bu davlatlar o'rtasida tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan muhim huquqiy va siyosiy vosita hisoblanadi. Xalqaro huquq normalariga asoslangan diplomatik munosabatlar davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish imkonini beradi. Maqolada O'zbekiston Respublikasining so'nggi yillardagi olib borayotgan faol tashqi siyosati, Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqaro tashkilotlar doirasidagi nutqlari hamda tashabbuslari asosida mamlakatimizda diplomatiyaga berilayotgan e'tibor ochib beriladi. Xususan, ochiqlik siyosati, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlar, mintaqaviy va global xavfsizlik bo'yicha ilgari surilgan tashabbuslar O'zbekistonning xalqaro huquqiy maydondagi obro'sini mustahkamlamoqda. Diplomatiya vositasida xalqaro huquq me'yorlari amaliyotga tatbiq etilib, global muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, maqolada diplomatiyaning zamonaviy shakllari va keljakdagi yo'nalishlari ham yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Xalqaro huquq, diplomatiya, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, tinchlik, hamkorlik, global xavfsizlik, ochiqlik siyosati, global muammolar.*

Xalqaro huquq va diplomatiya-zamonaviy xalqaro munosabatlarnin ikki muhim va o'zaro bog'liq bo'lgan ustunidir. Xalqaro huquq davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi norma va tamoyillar majmuini tashkil etsa, diplomatiya ushbu normalarni amaliyotga tatbiq etish, davlatlar o'ratsida o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatish va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositasidir. Diplomatiya xalqaro huquqning samarali ishlashini ta'minlash, davlatlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish va global tinchlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Diplomatiya belgilarining paydo bo'lishi juda Qadim zamonga, yani urug'chilik tizimi davriga borib taqaladi. Faqat diplomatic aloqalarning rasmiy ko'rinishiga kelishi davlatchilik tarixi boshlanishi bilan bog'liqdir. Davlatlararo tashqi siyosat sohasidagi vazifalarni amalga oshirish, shuningdek, chet elda huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi rasmiy faoliyat diplomatiya orqali amalga oshiriladi. "Diplomatiya" atamasi hozirgi ma'noda G'arbiy Yevropada XIII asr oxirida qo'llanila boshlangan. Diplomatiya davlat tashqi siyosatining eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi, ana shu siyosatning maqsad va vazifalari diplomatiya shakli hamda uslublarini belgilab beradi. qadimgi dunyo tarixida diplomatiya davlatning iqtisodiy siyosat bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni bajargan.

Zamonaviy diplomatik faoliyatning asosiy shakllari:

- diplomatik kongresslar, konferensiyalar yoki kengashlar;
- nota, memorandum, bayonot va hakozi shakllardagi diplomatic yozishmalar;
- xalqaro shartnomalarni tayyorlash va imzolash;
- davlatning elchixonalar va missiyalar orqali amalga oshiradigan chet eldagi vakilligi;
- xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish;
- tashqi siyosiy masalalar bo'yicha hukumat nuqtai nazarini matbuotda yoritish.

Diplomatiyani amalga oshirish davlatning tashqi funksiyalariga asoslanadi. Tashqi funksiyalar davlat tashqi siyosatning mazmunini belgilaydi. Tashqi siyosat- davlatning tashqi funksiyalarini amalga oshirishning barcha usullari va vositalarining yig'indisidir.

Davlatning xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar subyekt sifatida rivojlanishi xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan aloqalarsiz bo'lmaydi. Istalgan davlat o'z manfaatlarini yo'lida aloqalarni rivojlantiradi. Tashqi aloqalarning zarurligi mazkur aloqalarni amalga oshirish apparatini tashkil etish va xalqaro huquq bilan tartibga solishni talab etadi.

Tashqi siyosat diplomatiya bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'lanish shunchalik yaqinki, ba'zan ular o'z ixtiyori bilan yoki beixtiyor o'zaro tenglik belgisini qo'yadilar. Ammo bu tushunchalar o'rtasida farqlar mavjud. Diplomatiya tashqi siyosatning o'zi emas, balki uni amalga oshirish usullari va vositalari majmuidir. Tashqi siyosatning maqsad va vazifalarini amalga oshirish, uning huquq va manfaatlarini xorijda himoya qilish uchun davlat rahbarlari, hukumatlar va tashqi aloqalar maxsus organlarining rasmiy faoliyati, davlat faoliyatining maxsus sohasi diplomatiya deb ataladi. Tashqi aloqalar sohasidagi davlat faoliyati keng manoda uning diplomatic faoliyati bo'lib, bu davlatning xalqaro maydondagi barcha rasmiy aloqalari va munosabatlarini qamrab oladi. Bu faoliyatni davlatlar o'rtasidagi shartnomalar asosida tartibga soluvchi qoida, odatda, xalqaro huquqning sohalaridan biri bo'lgan diplomatic huquqdir va zamonaviy adabiyotlarda shunday yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bobi tashqi siyosatga bag'ishlangan va unda belgilangandek, mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi deb belgilab qo'yilgan. Hozirgi davrda O'zbekistonning yangi tashqi siyosati dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat hamda mamlakat ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning milliy manfaatlarini samarali ilgari surish, zamonaviy xalqaro muammolarga yechim topish imkonini beruvchi ochiq, izchil va chuqur o'ylangan tashqi siyosat amalga oshirilmoqda.

Diplomatiya xalqaro munosabatlarning eng muhim vositasi bo'lib, u davlatlar o'rtasida tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro

huquq normalari asosida olib boriladigan diplomatik munosabatlar davlatlar o'rtasida nizolarni qonuniy asosda, zo'ravonlik va harbiy harakatlarsiz hal qilish imkonini yaratadi. BMTning asosiy tamoyillari, Jumladan, suverenitet, davlatlarning tengligi, ularning ichki ishlariga aralashmaslik, zo'ravonlikdan tiyilish kabi prinsiplar diplomatiyaning huquqiy poydevorini tashkil qiladi. Diplomatiya vositasi sifatida xalqaro huquq normalarining amaliyotga tatbiqi davlatlararo munosabatlarning barqarorligini mustahkamlaydi. Shuningdek, diplomatik missiyalar, elchixonalar va xalqaro konferensiyalar orqali o'zaro tushunishni rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida o'z tashqi siyosatini barqarorlik, mintaqaviy va global hamkorlik asosida olib borishga intildi. Ayniqsa, so'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning rahbarligi ostida mamlakat tashqi siyosatida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Prezident Mirziyoyev xalqaro tashkilotlardagi nutqlari va tashabbuslari orqali O'zbekistonning ochiqlik siyosatini jahon hamjamiyatiga tanitdi va qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. Ochiqlik siyosati konsepsiyasi asosida O'zbekiston mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun turli tashabbuslar bilan chiqmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, terrorizm, ekstremizm va narkotik vositalar savdosiga qarshi kurashishda hamkorlikni rivojlantirishda faol rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, global muammolarni hal etishda ham O'zbekiston o'zining xalqaro majburiyatlarini bajarishda, tinchlikni ta'minlash va iqtisodiy taraqqiyot yo'lida faol qatnashmoqda.

Bugungi kunda diplomatiya an'anaviy shakllaridan tashqari yangi yo'nalishlarga ega bo'lib bormoqda. Raqamli diplomatiya, yashil diplomatiya, odamlar diplomatiyasi va multilateral diplomatiya kabi yangi tendensiyalar xalqaro huquq tizimida o'z o'rnini topmoqda. Raqamli diplomatiya axborot texnologiyalaridan foydalangan holda davlatlararo aloqalarni tez va samarali yo'lga qo'yishga imkon beradi. Yashil diplomatiya esa atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash masalalarida davlatlarning hamkorligini kuchaytiradi. O'zbekiston ham bu yangi diplomatiya shakllarini joriy etish va xalqaro maydonda o'z pozitsiyasini yanada mustahkamlashga intilmoqda.

Mamlakatning tashqi siyosat strategiyasida zamonaviy diplomatiya vositalaridan samarali foydalanish, shuningdek, xalqaro huquq normalariga qat'iy rioya qilish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Xalqaro huquq tizimida diplomatiyaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Diplomatiya davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning qonuniy, tinch va barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy vosita sifatida xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining so'nggi yillardagi tashqi siyosati va Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'si va ta'sirini oshirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy diplomatiya shakllarini joriy

qilish orqali O'zbekiston global muammolarni hal qilishda faol ishtirok etmoqda va xalqaro huquqiy tartibni mustahkamlashda o'z o'rnini oshirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.G.Yuldasheva.Diplomatik va konsullik huquq.Darslik. Toshkent 2024
- 2.Mualliflar jamoasi.Xalqaro huquq.Darslik.Toshkent 2018
- 3.Kissinger,H.Diplomacy.Simon& Schuter.1994.
- 4.United Nations.(1961). Vienna Convention on Diplomatic Relations.
5. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi saytida chop etilgan diplomatiya bo'yicha materiallar. www.mfa.uz